

## **INGLIZ TILINI GURUH ICHIDA DARAJAVIY TABAQALASHTIRIB O‘QITISH TEXNALOGIYALARINI OLIY TA’LIMDA QO‘LLASH**

*Akbarova Umidaxon Muxtor qizi*

*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, Media va kommunikatsiya fakulteti,  
Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta’minoti kafedrası o‘qituvchisi*

Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish (pedagogik) texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligi bayon etilgan. Talim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylandi.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun ta’lim tizimida tabaqalashtirish ta’limida foydalanilshmoqda. Bu ta’limning maqsadi ta’lim jarayonida sog‘lom raqobatni taminlash, ya’ni turli bilim darajadagi talabalarni sog‘lom roqobatini ta’minlashdir.

Respublikamizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham ma’lum yangiliklar, tubdan o‘zgarishlar bo‘lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma’suliyat yuklaydi.

Tabaqalashtirilgan ta’lim — oliy ta’limda talabalar qobiliyatlarini hisobga olgan holda alohida o‘quv rejasi va dasturlar asosida olib boriladigan ta’lim turi. Tabaqalashtirilgan ta’limning mehnat ta’limi bilan aloqasi o‘quv tarbiyaviy ishlarning muhim asosi hisoblanadi. Tabaqalashtirilgan ta’lim jarayonida talabalar kasbiy tayyorgarliklariga alohida e’tibor beriladi. Shu sababli ayrim oliy ta’limda bilim asoslarini chuqurlashtirishga, talabalarni muayyan kasbga yo‘naltirishga mo‘ljallangan. Tabaqalashtirilgan ta’limda oliy ta’limda tizimidagi asosiy o‘quv predmetlari mazmunini chuqur o‘zlashtirish, bevosita kerakli o‘quv materiallarini o‘rganish ko‘zda tutiladi. Tabaqalashtirilgan ta’limning muhim jihati uning ma’lum sohaga yo‘naltirilganligi va bu

ta'lim jarayonida o'ziga xos predmetlar tizimining o'qitilishidir. Tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etishda oliy ta'limlardagi imkoniyatlar puxta o'rganiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda ma'lum miqsorda qo'shimcha dars mashg'ulotlari o'tkazish yoki o'quv rejasidagi ayrim predmetlarni tanlab olib, ularni chuqurroq o'zlashtirish rejalashtiriladi. Uning u yoki bu shaklini tanlashda oliy ta'lim va talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqiladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilar o'z qiziqishlari asosida yo'nalishlar bo'yicha guruxlarga bo'linib, ta'lim ma'lum kasbga yo'naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasbga yo'naltirish va yo'llashning muhim asosi hisoblanadi hamda biror mutaxassislik sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan bog'liq bilimlar asosida amalga oshiriladi. Tabaqalashtirilgan ta'limda talabalar kasbga yo'nalish va qiziqishidan qat'i nazar, barcha o'quv predmetlari bo'yicha to'liq oliy ma'lumotga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim talabalarning qaysi bo'lim yoki qaysi predmetni chuqur o'rgangan bo'lishiga qaramay, oliy o'quv yurtiga kirish uchun belgilangan imtihonlarda qatnashish imkonini beradi va unga tayyorgarlik bosqichi vazifasini o'taydi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim asosida talabalar tanlangan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim asoslarini egallashadi va amaliy malakalarga ega bo'lishadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim kasb tanlashning asosi hisoblanadi va talabalarning o'z qiziqish va moyilliklari asosida kasb tayyorgarligi sirlarini egallashlarida muhim o'rin tutadi.

Ingliz tilini guruh ichida darajaviy tabaqalashtirib o'qitish texnologiyalarini oliy ta'limda qo'llash- bu tabaqalashtirilgan o'qitish o'quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiy didaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi. O'qitishni tabaqalash (bu tushuncha o'qitish jarayonini o'zi bilan bog'liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi Individual o'qitish – bu o'quv jarayonining tashkil etishning shakli bo'lib, bunda pedagog va talaba yakkama-yakka o'zaro ta'sir ko'rsatadilar, talaba o'quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzluksiz mustaqil ta'lim oladi. Afzalliklari: pedagogik jarayonning (mazmun, usul, sur'at

va hokazo) talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi: talabning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etish.

Individallashtirilgan o'qitish texnologiyasi bunda o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish va o'qitishning individual shakli ustivor hisoblanadi. O'qitishning barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarida u yoki bu me'yorda individual yondashish qo'llaniladi, ammo individallashtirilgan o'qitishda, individallashtirish o'quv maqsadlariga erishishning asosiy vositasi hisoblanadi. Individallashtirilgan o'qitishning asosi talabning individual-pedagogik xususiyatlarini o'rgatish hisoblanadi.

Ingliz tilini guruh ichida darajaviy tabaqalashtirib tashkil qilishda avvalo o'qituvchidan talabalarni bilim darajasi aniqlash orqali guruhlarga ajratib olish talab qilinadi. Buning uchun o'qituvchi talabalarga ingliz tiliga oid test topshiriqlarni beradi va uning natijalarini tekshirish orqali o'quvchilar bilimi aniqlanadi. Natijalar orqali talabalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh talabalar topshiriqni tez bajaradigan, ikkinchi guruh talabalar esa sekinroq. Birinchi guruh talabalarini dars davomida zerikib qolmasaliklar uchun o'qituvchi qo'shimcha topshiriqlar berishi mumkin yoki o'qituvchiga yordamchi vazifasini bajarib yordam berishlar mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilini guruh ichida darajaviy tabaqalashtirib o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish uchun ingliz tilida mavzulashtirilgan va darajalashtirilgan o'quv qo'llanmalarini yaratish hamda buni amalda joriy etish tavsiya etiladi. Masalan, jurnalistika sohasida o'qiydigan talabalarga „media“ muavzusiga oid ma'lumotlarni taqdim etganda bir mavzuni o'zida ikki xil bilim darajadagi ma'lumotlar va topshiriqlar beriladi. Bu o'quv qo'llanmalarini sohaga yo'naltirgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tabaqalashtirish jarayonida o'qituvchidan ko'p mehnat talab etiladi. Ya'ni baholash jarayoni va darsni tashkil etish bilim va kuch talab etadi. Budan o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarda foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zamirovna A. N., Bahodirovna Z. R. KIMYO FANIDAN “OQSILLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 22. – №. 2. – С. 49-51.
2. Кулдашева Ш. А., Ахмаджанов И. Л., Адизова Н. З. Закрепление подвижных песков пустынных регионов сурхандарьи с помощью солестойких композиций //научные исследования. – 2020. – С. 101.
3. Атоев Э. Х. СТАНДАРТИЗАЦИИ ПРОЦЕДУР ДИДАКТИЧЕСКОГО ТЕСТИРОВАНИЯ //Аллея науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 168-172.
4. Атоев Э. Х. ИНФОРМАЦИОННЫЕ ФАЙЛЫ ДЛЯ ДИДАКТИЧЕСКОГО ТЕСТИРОВАНИЯ ПО ХИМИИ //Аллея науки. – 2018. – Т. 2. – №. 4. – С. 871-875.
5. АТОЕВ Э. Х., КУРБАНОВ М. Т. Педагого-психологические аспекты развития дидактического тестирования //Поколение будущего: Взгляд молодых ученых- 2014. – 2014. – С. 255-257.